Nukleotidlardan hujayradir erkin shaklda ham uchraydi va juda ko'p fiziologik jarayonlarda muhim o'min tutadi. Bir qator erkin nukleotidlар fermentlarning faol koferment gruppalarini sifatida fermentning katalitik reaksiyalarni ta'minlaydi, ular qatorida oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarda vodorodni qabul qiluvchi akseptorlar nikotinamidenin dinukleotid NAD va NADF, flavinadenindinukleotid FAD, atsil-atsil gruppalarini tashuvchi koenzim A (KoA) va boshqalar mavjud. Lekin erkin nukleotidlар orasida eng muhim adezonin trifosfat ATFdir.

Dezoksinadenozin 5'-fosfat (dLMF) Nukleotid va nukleozidning tuzilishi.

Nuklein kislotalarini tashkil etadigan polinukleotidlarning molekulyar massasi 20000 dan bir necha milliongacha. RNK DNK ga nisbatan ancha sodda, molekulyar massasi kichik, tarkibiga kiradigan mononukleotidlari soni 70 dan 3000 gacha, DNKA esa milliongacha yetadi. Polinukleotid zanjirida mononukleotidlari o'zaro fosfodiefir bog'i yordamida bog'lanadi. Fosfat gruppera ikkita qo'shi nukleotidlarning uglevod qoldiglarini 3' va 5' atomlari bilan eftir bog'i hosil qilgandan u 3'-5' fosfodiefir bog' deb ataladi. Polinukleotid zanjir shoslanmagan uzun tizilma hosil qilganda uning bir uchida erkin 5' OH ikkinchi uchida erkin 3' OH bo'ladi. Polinukleotidlarda mononukleotidlarning binin ketin izchil joylashishi uning *birlamchi struktururasini* tashkil etadi.

Polinukleotid zanjiri uzun bo'lganidan uning formulasini bunday to'la yozish ko'p vaqti va joy talab qiladi. Eng muhim bi shaklda yozishsha ehtiyoj yo'q. Nuklein kislotalaning formulasini yozishda uning nukleotid tartibiga ularning nomlarini bosh harflari bilan ifodalash qabul qilingan. Bunda har bir nukleotid bitta harf bilan ifodalanadi: N – umuman nukleotid: A, G, C, U, T –

konkretnukleotidlari: A – adenin, G – guanin, C – sitozin, U – uratsil, T – timin, bunda fosfat kislota qoldig'i f oldindida bo'lsa u polinukleotidning 5' – uchini, orqada bo'lsa 3' – uchini bildiradi. Masalan, f'AGf'SFT.

DNK barcha tirk organizmlarda va bir qancha viruslarda mayjud. DNK iringatning asosiy materiali, genetik axborotni saqlaydi va naslidan nasliga o'tkazadi. DNK molekulasining birlamchi strukturasi izchil joylashgan dezoksiribonukleotidlari qatordan iborat, har bir qator bir zanjir hisoblanisa, DNK molekulasi bir-birini o'ragan ikki zanjirdan iborat. DNK qo'sh zanjirning yo'g'lonligi 2 nm ga teng. DNKnинг bitta zanjirdagi qo'shi asoslari orasidagi masofa 0,34 nm, zanjirning bitta aylanish uzunligi 3,4 nm ni tashkil qiladi va bitta aylanada 10 ta nukleotidi o'z ichiga oladi. (DNKnинг ikki zanjirida bitta aylanada 20 ta nukleotid joylashadi) DNKnинг molekulyar massasi ham juda katta. Butun holda ajaratib olingan eng katta DNKnинг molekulyar massasi  $10^{19}$  daltoniga teng.

DNKning bir zanjimi azotli asoslariga ikkinchi zanjirning azotli asoslari qarama-qarshi (komplementar) joylashadi. Bir zanjirdagi adenin (A) qarshisida hamisha 2-zanjirning timin (T) turadi. Guanin (G) qarshisida esa 2-zanjirdagi sitozin (C) joylashadi. Buning sababi shuki, G va C dagi kabi A va T da ham azotli asoslar molekulalarining chetlari geometrik jihatdan mos keladi, shuning uchun ular bir-biriga yaqin kelib, o'zaro vodorod bog'i hosil qiladi. Ayni vaqtida G bilan C o'rjasida 3 ta, A bilan T esa 2 ta vodorod bog'i hosil qilib birkadi. Shunga ko'ra adenin timin bilan, guanin esa sitozin bilan to'diriladi. To'dirish so'zi lotinchanad olingan bo'lib, "komplementarlik" deyiladi.

DNK zanjirning 1-qismi: A-C-T-T-G

DNK zanjirning 2-qismisi: T-G-A-A-C

DNK molekulasi bir zanjirida nukleotidlarning ketma-ket kelish tartibi ma'lum bo'lsa, ikkinchi zanjirdagi nukleotidlarning ketma-ket kelish tartibiga komplementarlari tamoyiliga muoqiq belgilanadi.

Lekin ikkiti zanjir bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishda antiparallel o'rinni olgan.

Zanjirning bir-biriga mos va komplementar bo'lishi ham bir zanjirdagi purin asosi qarshisida ikkinchi zanjirda pirimiddin asosini bo'lishini talab qiladi. DNK zanjirida A (adenin) T (timin), G (guanin) esa C (sitozinga) teng bo'ladi. Lekin DNK zanjirida AT juftligi GC juftiga teng bo'lmaydi. DNK nasiyl informatiya xazinasidir. Bu informatiya butun DNK molekulasi joylashgan nukleotidlardan tarkibida, ularning birin-ketin kelishi shaklida yozilgan.

Azotli asoslarining komplementarlari *EChargeff* qoidasida aks etган:

1. Purin asoslarining soni pirimidin asoslari soniga teng

2. Adeninlar soni timinlar soniga, guaninlar soni sitozinlar soniga teng: A=T, G=C

3. Adenin va guaninlar sonining yig'indisi sitozinlar va timinlar sonining yig'indisiga

teng A+G=T+C

Azotli asoslar komplementarligi DNK ning irlsiy axborotni saqlash va nasldan naslga o'tkazish vazifasining kimyoiy asosi hisoblanadi. Nukleotidlarning ketma-ketligi saqlan gandagina irlsiy axborot nasldan naslga xatosiz o'tkaziladi.

1953-yilda ingлиз олимлари *Watson va Crick* DNK molekulasi niq'sh spiral strukturaga ega ekanligini kashf qildilar. Bu kashfiyot orqali irlsiy belgilarning nasldan naslga o'tish sirlari o'childi. Kashfiyot yangi molekulyar biologiya fanning vujudiga kelishiga zamin yaratadi.

DNK molekulasi birlgilikda o'ng tarafga buralib, qo'sh spiral hosil qiluvchi ikkita polinukleotid zanjirlardan iborat. Bu zanjirlar bir-biriga antiparallel bo'lib, biri 3' uglevod bilan boshlanib 5' uglerod bilan tugallansa, ikkinchisi 5' uglerod bilan boshlanadi va 3' uglerod bilan tugallanadi. Purin va pirimidin asoslari spiral ichida joylashadi.

Bir zanjirming purin asosi va ikkinchi zanjirming pirimidin asosi bir-biri bilan vodorod bog'i orqali bog'lanib komplementar juftlarni hosil qiladi. Adenin va timin o'rtasida ikkita vodorod bog'i hosil bo'lsa, guanin va sitozin o'rtasida uchta vodorod bog'i hosil bo'ladi.


### Nuklein kislotalar tarkibi

Komponentlar	RNK	DNK
Fosfat kislota	H <sub>3</sub> PO <sub>4</sub>	H <sub>3</sub> PO <sub>4</sub>
Uglevod-monosaxarid	Riboz	Dezoksiriboz
Purin asoslari	Adenin, Guanin	Adenin,
Pirimidin asoslari	Sitozin, Uratsil	Sitozin, Timin

### DNK va RNK ning xususiyatlari

Xususiyatlari	DNK	RNK
Hujayrada uchrashi	Yadro, mitokondriya, xloroplast	Yadro, ribosoma, sitoplazma, mitokondriya,
Yadroda	Xromosomalar	Yadrocha
Tizilishi	Qo'sh polinukleotid zanjiri	Yakka polinukleotid zanjiri
Monomerlari	Dezoksinukleotidlardar	Ribonukleotidlardar
Nukleotiddar ning tarkibi	Purin asoslari – adenin, guanin pirimidin asoslari – timin, sitozin uglevod – dezoksiribosa, fosfat kislota qoldig'i	Purin asoslari – adenin, guanin pirimidin asoslari – uratsil, sitozin, uglevod – riboza, fosfat kislota qoldig'i
Sintezlanishi	Komplementarlik asosida, reduplikatsiya	Komplementarlik asosida, transkripsiya

<i>Tuzilishi</i>	Genetik axborotni saqlash, ko'paytirish, nasldan naslga o'tkazish	Oqsil biosinteza ishtirok etish
------------------	---	---------------------------------



### 2.2 R NK Ribonuklein kislotalari.

RNK asosan sitoplazmada joylashgan bo'lib, qisman yadroda, plastida va mitokondriyalarda ham uchraydi. Ribonuklein kislotalarning uglevod komponenti ribozadir. RNK miqdori o'zgarib turadi.

RNK ham DNK kabi yuqori organik polimerdir. RNKnинг ham monomeri nukleotiddir. Azotli asoslarining 3 tasi DNKnинг nukleotidlari kabi A, G, C bo'lsa, 4-nukleotidi timin o'miga uratsil (U) to'g'ri keladi. DNKdag'i uglevoldardan dezoksiribosa bo'lsa, RNKda riboza bo'ladi. Shuningdek, RNK tarkibida ham fosfat kislotalaning qoldig'i bo'ladi. RNK strukturasida DNK strukturasiga o'shshaydi, ammo farqi ham bor. RNK strukturasida qo'sh spiral yo'q va bajaradigan vazifalarida ham farq bor. DНK irlsiy axborotni saqlash va nasldan nasla o'tkazish vazifasini bajaradi, RNK oqsil sinteza ishtirok etadi.

*Hujayrada asosan 3 xil RNK mavjud:*

iRNK (transport RNK)

iRNK (informatsion RNK) yoki (mRNK matritsal RNK)

rRNK (ribosomal RNK)

#### RNKnинг tuzilishi iRNK (informatsion RNK)

RNKnинг boshqa bir turi informatsion RNK (iRNK) yoki matritsalni RNK (mRNK) deb ham yuritiladi. iRNK nukleotidlari soni 75–3000, molekulyar massasi 25000–1000000, barcha RNKlarning

2% im tashkil qiladi. iRNK o'zida DНKdan ko'chirib olingan axborotni saqlaydi va oqsil sinteza vaqtida matritsa (qolip) vazifasini bajaradi. iRNK oqsil sintezlanayotgan vaqtida DНKdan axborotni yetkazib beradi. DНK dan hosil bo'lgan iRNK molekulasi o'z matritsasidan ajralib yadroda sitoplazmag'a o'tadi va o'ziga xos muayyan oqsilni sintez qilish uchun matritsa bo'lib qoladi.

iRNK da nukleotidlardan tashibini birin ketin kelishi aminokislotalarning oqsil molekulasi sintezida birin ketin kelishini belgilaydi.

iRNK sintez qilinadigan oqsilning tuzilishiغا taaluuqli informatsiyani yadrodan sitoplazmaga o'tkazadigan vositachi bo'lib xizmat qiladi.

iRNK yadroda DNK molekulalardan sintezlanadi.

iRNK da har bir aminokislotsani o'zi uchun maxsus kodoni mavjud.

iRNK yadrodan protoplazmadaqni ribosomallarga o'tadi va ular bilan o'zaro ta'sir qilib oqsil sintezida ishtirok etadi.

iRNK molekulalari oqsil sintezi uchun matritsa o'mini bosadi, ya'n ular mazkur oqsildan darak beradigan muayyan kod bilan shifrovka qilingan (aloxida belgilari bilan tilgan) va xabarga ega bo'ladi.

iRNK ning turlari orasidagi farq 4 ta azotli asos – U, S, A, T ning turlicha tartib bilan gallanishidir.

iRNK molekulasida 4 ta azotli asosning joylashish tartibi sintez qilinayotga oqsilning polipeptid zanjirida 20 ta aminokislotsani joylashish tartibini qandaydir bir tarza belgilab beradi deb, ya'n 20 ta aminokislotsadan har biri shu matritsada birga qo'shilgan bir nechta azotli asoslar tomonidan kodllangan (ya'n 20 ta azotli asoslar tomonidan kodllangan) ya'n qo'yilgan malum bir joyini egallashi mumkin deb xulosa chiqarish mumkin.

#### *rRNK (ribosomal RNK)*

rRNK 100–3100 nukleotiddan iborat, molekulyar massasi 35000–1100000, umumiy RNKlarning 80% ni tashkil qiladi. rRNK ribosomada bo'lib, oqsil sintezida qatnashadi, ya'n ribosoma oqsillari bilan birikib, ribosomani tashkil qiladi va ribosomani iRNKda qadam-baqadam siljishini ta'minlaydi.


rRNK – yuksak polimer birikma. U oqsil bilan birikib, xujayra ichida aloxida submikroskopik donalar – ribosomalar hosil qiladi. Ribosoma – oqsil sintezlidanigindan fabrikadung aminokislotsalar yetkazib berib turiladi.

rRNK – oqsil sintezi jarayonida ribosomallarning iRNK zanjirida qadam-baqadam siljishilar, menekin xarakatlarni amalga oshiradi.

#### *tRNK (transport RNK)*

tRNK tarkibiga 75–100 tagacha mononukleotidlardan tashkil topgan, molekulyar massasi 23000–30000, umumiy RNK larning 18% ni tashkil qiladi. Har bir aminokislotsani uchun spetsifik tRNK mavjud. tRNKning birlamchi strukturasingin ayrim qismalaridagi nukleotidlardan qo'sh asoslar tashkil qilib birikishi natijasida «beda barg'i» nomi bilan yuritiladigan ikkilanchi struktura kelib chiqadi. tRNK sitoplazmada ma'lum erkin aminokislotsani biriktirib ribosomaga tashib keltiradi, tRNKda akseptor uchi va antikodon qismi mavjud. Akseptor uchi bilan aminokislotsani biriktiradi, antikodon qismidagi uchta nukleotid (triplet) tRNK kodori (bitta aminokislotsani sinteziga javobgar uchta nukleotiddan iborat) qismiga mos keladi. Bundan tashqari tRNK aminokislotsani sintezlanayotgan oqsilning qaysi qismiga o'tirishini ta'minlaydi (*adaptorlik funksiyasi*).

RNК tiplari	Nukleotidlardan soni	Molekulalar massasi	Miqdori (% da RNKning umumiy miqdoriga nisbatan)
iRNK	70 – 100	23000 – 30000	18 %
rRNK	100 – 3100	35000 – 1100000	80 %
iRNK	75 – 3000	25000 – 1000000	2 %



#### *2.3. Ribosoma*

Oqsil sintezini amalga oshiruvchi membranasiz organoid bo'lib, eukariot va prokariontlarda ham uchraydi. Lekin prokariotlarning ribosomasi kichikligi va kimyoviy tuzilishi bilan eukariotlarning farq qiladi. O'chhami taxminan 20x30 nm, hujayradagi qancha millionlab uchrashi mumkin.

Ribosoma ikkita – katta ya kichik subbirliklardan iborat. Har bir subbirlik oqsillar bilan rRNK kompleksidan iborat. Eukariot hujayralardagi ribosoma (80 – subbirlik) katta subbirlik (60 – S) va kichik subbirlik

(40 – S) (lot. Sedimentum – qoldiq, cho'kma; S – ribosoma oqsillarining cho'kish koefitsienti) dan iborat. Prokariot hujayrasidagi ribosoma (70 – S), katta subbirlik (50 – S) va kichik subbirlik (30 – S) dan iborat. Ribosoma oqsillari sitoplazmada yadroga poralar orqali kiradi. Yadrochada rRNK va oqsil kompleksidan ribosomalar shakllanadi va yadro membranasining teshiklari orqali sitoplazmaga o'tib, translyatsiya (oqsil sintezi) jarayonida i-RNК yordamida birlashadi.

#### *Ribosomaning funksiyasi.*

Ribosomaning asosiy funksiyasi informatsion RNK kodni asosida, transport RNK yordamida oqsillarni aminokislotsani molekulalardan yig'adi, sintez qiladi.

Yadrodan sitoplazmaga chiqqan ribosoma endoplazmatik to'r membranasining tashqi tomoniga va yadroning tashqi membranasiga bog'lanishi (bog'langan ribosomalar), sitoplazmada yakka holda

(*erkin ribosomalar*) yoki bir qancha guruhchalar (*poliribosoma*) holida bo'lishi mumkin.

*Erkin ribosomalarda* — hujayra o'z faoliyati uchun zarur oqsillar sintezlanadi (masalan trofik oziq kiritmalari oqsillari).

*Birkittirilgan ribosomalarda* — asosan hujayradan tashqariga chiqariladigan (turli oqsi tabiatli gormonlar) va hujayraning qurilishi uchun kerak bo'lgan oqsillar sintezlanadi.

Ribosomaning kichik subbirligining funksiyasi i-RNKnin birkittirish bo'ssa, katta subbirlarning funksiyasi polipeptid zanjimi sintezlashdir.

Ribosomaning katta subbirligida ikkita faol qism bor:

P — peptidl qismi

A — aminoatsil qismi

A — (aminoatsil) qismiga aminokislota o'ziga biriktirgan transport RNK birkadi, so'ng u.

P — (peptidl) qismiga o'tadi, shunda aminokislota o'zidan oldingi aminokislotaga peptid bog'i bilan birkadi.

Demak, ribosoma aminoatsil qismiga aminokislolar birkadi, peptidil qismida aminokislolar bir-biri bilan peptid zanjirini hosil qildi. Mitokondriya va plastidlarda ham ribosomalar mavjud, lekin ular

sitoplazma ribosomalaridan kichikroq, ko'proq prokariot ribosomalariga o'xshash.

#### **Ribosomaning tuzilishi. Matritsali sintez reaksiyaları.**

Genetik axborot DNK molekulasiagi nukleotidlar ketma-ketligida ifodalangan. Genetik axborot asosida biopolimerlar sintezlanishi *matritsali sintez reaksiyaları* deyiladi. Bu reaksiyalarga:

DNK sintezi — *reduplikatsiya*,

RNK sintezi — *transkripsiya*,

oqsil biosintezi — *translatiya*

Matritsali sintez reaksiyaları asosida nukleotidlarning o'zaro komplementarligi yotadi.

#### **2.4. Hujayrada DNK va RNK sintezi**

Oqsil odam va hayvonlar oziqasining eng zarur va muhim qismidir. Ovqatda oqsil yetishmasa, uning o'mini uglevod yoki yog' moddalar bosa olmaydi, chunki oqsil, tarkibida azot atomi tutuvchi aminokislotalardan tuzilgan, asosiy yog' va uglevod molekulalardira esa azot bo'lmaydi. Yog'lar va uglevodlar organizmda, asosan energetik modda sifatida ahamiyatga ega, oqsil esa birinchi navbatda hujayraning qurilish materiali hisoblanadi. Hujayra komponentlarining tuzilishi uchun zarur plastik material oqsillar va nuklein kislotalardan yaxshi, kimyoviy tilda yozilgan ma'lumot asosida o'ziga xos maxsus mexanizm bo'yicha sintez qilinadi. Buning uchun fundamental nashiy informatsiya xizmat qiladi. Oldindan mavjud qolip, andoza asosida yangi

molekulaning yaratilishi nuklein kislotalarning sintezlanish yo'lidir. Yangi DNK molekulasing sintezi uchun uning yadroda oldindan tayyor nusxasi bo'lishi kerak. Bu usuldagi sintez xuddi kitob bosilayotganda harflar yoki belgilaming qolipiga o'xshash formadan foydalanishi kabi matritsa asosida sintez deb ataladi. Binobarin, yangi DNK molekulasing sintezi tayyor DNK namunasidan nusxa olishdan iborat va shuning uchun nusxa olish — replikatsiya deb ataladi. Yangi DNK zanjiri tayyor DKNning nusxsasiga, matritsasiga qarab tuziladi. Bu jarayonda matritsa vazifasini DNK qo'sh zanjirining bir ipa bajaradi. Nuklein kislotalarning genetik jarayonagi roli ularning strukturalarda nukleotidlar qatori shaklida yozilgan informatsiyani o'ziga xos oqsil molekulasida aminokislolar qatori shaklida amalga oshirilishi bilan yakunlanadi. Bu jarayon genetik axborotni bir tomonidan DNK, RNK yo'naliishidagi oqimi va ikkinchi tomonidan ribosomada oqsil sintezini uzviy bog'lanishlarda mujassamlangan bo'lib, DKNning replikatsiyasidan boshlanadi.

#### **2.5. DNK molekulasing ikki marta ko'payishi.**

Hujayrada DNK molekulalari, asosan yadroda, uning tarkibidagi xromosomalarda joylashgan va mana shu strukturalarda sintezlanadi. DNK molekulasi ikki zanjirdan tuzilgan qo'sh spiral bo'lganidan uning sintezi


shu qo'sh spirali yaratishdan iborat. Bu zanjirlar bir-biriga to'la komplementar va mos, bir ikkinchisini to'latib turadi. D NK molekulasing sintezi uning boshlang'ich qo'sh zanjirini fermentlar yordamida ikkita alohida zanjirliarga ajarilishiha va ular har birining strukturasiga mos ikkinchi zanjiri yaratishiga asoslangan. Demak, D NK sintezida qo'sh spiral alohida ikkita zanjirga ajaraldi. Endi har bir zanjir qo'sh spiralidan ajarilib, ikkinchi zanjiri yaratilishi uchun matritsa sifatida xizmat qiladi, natijada uning

komplementar nusxasi sintezlanib, qaytadan qo'sh zanjir paydo bo'ladi. Yangi D NK molekulasing sintezi tayyor D NK namunasidan nusxa olishdan iborat va shuning uchun nusxa olish — replikatsiya

deb ataladi. Bunda D NK — polimeraza fermenti yordamida yadro ichidagi erkin nukleotidlardan foydalanib, D NKning yangi zanjiri sintezlanadi. Bu interfazaning sintezi — (S) davrida amalga oshadi. Demak, D NKning sintezlanib ikki marta ko'payishi, uning har bir zanjirining yetishmagan sheringini sintezlashtiradi, D NKning ayni nusxasini olishdan iborat. D NKning ikki marta ko'payishi *reduplikatsiya* deyiladi. Bu jarayonda bir zanjirdagi purin asosi qarshisida ikkinchi zanjirda pirimidin va, aksincha, pirimidin asosi qarshisida purin asosi, ya'ni bir zanjirdagi adenin A qarshisida ikkinchi zanjirda timin T, guanin G, qarshisida sitozin C va, aksincha, joylashadi. Mana shu mexanizm asosida D NK molekulasing ikki marta ko'payishi hujayra bo'linishida bitta ona hujayradagi nashiy material — informatsiyani ikkita qiz hujayralarga bir xil va baravar taqsimlanishini ta'minlaydi.

Irsiy axborotni nasldan nasliga o'tkazish DNK molekulasining fundamental xususiyati –reduplikatsiyasi bilan bog'liq. DNK molekulasining ikki hissa ortishi reduplikatsiya deyiladi. DNK molekulasining dastlabki qo'sh zanjiri maxsus fermentlardan yordamida ikkita alohida zanjirlarga ajraladi. DNKnинг bir zanjiri yangi zanjirning sintezi uchun matritsa bo'lib xizmat qiladi.

DNK – polimeraza fermenti ishtirokida hujayradagi erkin nukleotidlardan foydalanib, ATP energiyasi hisobiga DNKnинг yangi komplementar zanjiri sintezenadi. Bu jarayon hujayra sikli interfaza bosqichining sintez davrida sodir bo'ladi.



## 2.6.RNK sintezi – transkripsiya.


RNK ning har uchalasi ham hujayrada doimo sarflanib va yangidan sintezenib turadi. RNK asosan yadroda sintezenadi. RNK D NK molekulasiagi nukleotidlari tartibi shaklida yozilgan informatsiyani ko'chirib oladi, bu jarayon transkripsiya – ko'chirib yozish deyiladi. Haqiqatan ham bu jarayonda DNKdag'i nukleotidlari qatorni RNKdag'i nukleotidlari qatorida takrorlanadi, faqat DNKdag'i T o'miga U,

dezoksniroboza o'miga riboza joylashadi. Shuni ta'kidlab aytish kerakki, DNK molekulalari juda katta, ulardag'i yozilgan informatsiya juda ko'p, RNK, DNK molekulasining kichik bir qismiga to'g'ri keladi, binobarin bir DNK matritsasida yuzlab, minglab i-RNK, t-RNK, r-RNKLar sintezenishni mumkin. Ayni vaqtida har bir i-RNKLagi informatsiya kamida bitta oqsil molekulasi sintezi uchun yetarlidir. RNKnинг uch tipi ham yadroda bir xil mexanizmda sintezenib, so'ngra sitoplasmaga ko'chiriladi va oqsil sinteza ishtirok etadi.

Bu jarayonda DNK matritsa hisoblanadi. Oqsil tuzilmasi to'g'risidagi axborot yadroda, DNKda saqlanadi. Oqsil sintezi esa sitoplasmada, ribosomalarda o'tadi. Oqsilning tuzilmasi hagidagi axborot yadronan sitoplasmaga i-RNK tomonidan o'tkaziladi. DNK qo'sh zanjirining bir qismi yozildi va zanjirlaming.

birida komplementarlik asosida (A-U, G-S) RNK-polimeraza fermenti yordamida i-RNK sintezenadi. Bunda DNKnинг faqat bitta zanjiri ma'noga ega bo'lib, ikkinchi DNK zanjiri matritsa vazifasini bajaradi, shu matritsali zanjirdan i-RNK sintezenadi. Aminokislotalar izchilligi to'g'risidagi axborot

DNK dan i-RNK ga ko'chirilishi **transkripsiya** deyiladi



*DNK zanjiridan i-RNK zanjirini sintezenish sxemasi.*

## 2.7.Hujayrada irsiy axborotning amalga oshirilishi.

Organizmlar hayotining asosiy sharti, bu – hujayralar oqsil molekulasining sintezlay olish qobiliyatidir. Har bir tur boshqa turillardan farqlanuvchi, unikal oqsillar to'plamiga ega. Turli organizmlarda bir xil funksiyani bajaradigan oqsillar ham aminokislotalar soni va izchilligi bilan farqlanadi. Muhim hayotiy funksiyalarni bajaruvchi oqsillar barcha organizmlarda o'xshash bo'ladi. Tashqi muhitdan ovqat tarkibida qabul qilingan oqsillar bevosita shu organizmning hujayralari oqsillari o'mini bosa olimaydi. Bu oqsillar organizm larning hazm qilish organlarida aminokislotalarga parchalanadi. Bu aminokislotalar ichakdan qonga so'rilib, hujayrlarga yetib boradi. Genetik axborot asosida har bir hujayra o'ziga xos bo'lgan oqsillarni sintezlaysadi. Oqsillarning faoliyat ko'rsatish muddati cheklangan bo'lib, ma'lum vagtdanso'ng ular parchalanadi. Ularning o'rniga to'xtovsiz yangi oqsillar hosil bo'ladi. Oqsillar strukturasini DNKdag'i nukleotidlari ketma-ketligi belgilaydi. Oqsillarning birlamchi strukturasi haqidagi genetik axborotlar DNK zanjirida nukleotidlari izchilligi tarzida birin-kekin joylashgan DNKnинг bir polipeptid zanjiridagi aminokislotalar yoki

ribosomal va transport RNK molekulalaridagi nukleotidlardan izchilligini belgilaydigan bir qismi *gen* deb ataladi.

Sintezlanadigan oqsil strukturasi belgilashda asosiy rolni DNK o'ynaydi. DNK molekulasing turma'lum bir oqsilning birlamchi strukturasiga to'g'risidagi axborotin o'zida turib turadigan bo'lagi gen deyiladi DNK molekulasiда necha yuzlab genlar bo'ladi.

### 2.8.Oqsilning strukturasi

#### Oqsilning birlamchi strukturasi DNK da qanday programmalashtirilgan?

Tirik tabiatida evolyutsiya jarayonida bir kod yuzaga kelganki uni DNK kodi (genetik kod) deb ataladi. Bitta hujayradagi barcha oqsillarning birlamchi strukturasiga to'g'risidagi axborotin DNK molekulalariga yozilgan va ularda saqlanadi.

Oqsillar tarkibiga kiruvchi har bir aminokislötaning nuklein kislotalarda ketma-ket joylashgan uchta nukleotid (triplet, kodon) yordamida ifodalaniishi *genetik kod* deyiladi. DNK tarkibida 4 ta har xil nukleotid bo'lishi nazarda tutilsa, 43=64 ta kod hosil bo'ladi. Bitta aminokislota 2, 3, 4, 6 ta kod yordamida kodlanar ekan. Genetik kod 1962-yili Amerika bioximiklari M. Nirenberg va S. Ochoalar tonomidan aniqlangan.

#### Genetik kodning xususiyatlari:

1. Har bir aminokisloti nukleotidlardan tripleti kodlaydi.
2. Har bir triplet (kodon) bitta aminokisloti ifodalaydi.
3. Bitta aminokisloti bir necha triplet kodlashi mumkin.
4. Genetik kod barcha tirk organizmlar uchun universal.
5. Genetik kodning 61 tasi «ma'noli», ya'nini ma'lum aminokislotalarni ifodalovchi triplettlardir. UGA, UAA, UAG aminokislotalarni ifodalaymaydi. Ular polipeptid sanjirining tagallanishini bildiruvchi terminator kodonlardir. *Almashtimaydigan aminokislotalar*.

#### Genetik kod

Birinchi azon	Bikinchi azon				Uchinchi azon
	U (A)	C (G)	A (T)	G (C)	
U (A)	Tyr	Ser	Tyr	Ser	U (A)
	Tyr	Ser	Tyr	Ser	C (G)
	Lys	Ser	Lys	Ser	A (T)
	Lys	Ser	Lys	Ser	G (C)
			Terminator	Terminator	
C (G)	Lys	Pro	Gly	Arg	U (A)
	Lys	Pro	Gly	Arg	C (G)
	Lys	Pro	Gly	Arg	A (T)
	Lys	Pro	Gly	Arg	G (C)
A (T)	Ile	Tre	Asn	Ser	U (A)
	Ile	Tre	Asn	Ser	C (G)
	Ile	Tre	Lys	Arg	A (T)
	Ile	Tre	Lys	Arg	G (C)
	Met				
G (C)	Val	Ala	Asp	Glu	U (A)
	Val	Ala	Asp	Glu	C (G)
	Val	Ala	Glu	Glu	A (T)
	Val	Ala	Glu	Glu	G (C)

**Genetik kod.** Izoh: AUG – start kodon; UAA, UAG, UGA terminator – stop kodonlar.

Halqasiz (asiklik) aminokislotalar 70 %, Halqali (siklik) aminokislotalar 30%.

Oqsillar tarkibidagi aminokislotalar	
Halqasiz (asiklik) aminokislotalar	Halqali (siklik) aminokislotalar
1. Glutsin	8. Leysin
2. Alanin	9. Izoleysin
3. Serin	10. Treonin
4. Sistein	11. Lizin
5. Sistin	12. Arginin
6. Metionin	13. Asparagin kislota
7. Valin	14. Glutamin kislota
	15. Fenilanalin
	16. Tirozin
	17. Triptofan
	18. Gistidin
	19. Prolin
	20. Oksi prolin

Nº	Formulası	Nomi
1	<chem>CH3-CH(C(=O)N)CH3</chem>	Valin
2	<chem>CH3-CH(CH3)-CH2-CH(C(=O)NH2)CH3</chem>	Leysin
3	<chem>CH3-CH2-CH(C(=O)NH2)CH2-CH3</chem>	Izoleysin
4	<chem>CH3-CH(OH)-CH(C(=O)NH2)CH3</chem>	Treonin
5	<chem>C6H5-CH2-CH(C(=O)NH2)CH2-CH3</chem>	Fenilanalin
6	<chem>CC1=CSC=C1-CH2-CH(C(=O)NH2)CH3</chem>	Triptofan
7	<chem>CH3-S-CH2-CH2-CH(C(=O)NH2)CH2-CH3</chem>	Metionin
8	<chem>CH(NH2)=C(NH)CH2-CH2-CH2-CH(C(=O)NH2)CH2-CH3</chem>	Arginin
9	<chem>C1=CN=C=C1-CH2-CH(C(=O)NH2)CH3</chem>	Gistidin

## 2.9.Oqsil biosintez

**Translytsiya.** Oqsil sintezi ribosomlarda kechadi. Ribosomalarda DNKdan olingin informatsiya asosida kodlash mexanizmiga muvofig amalgashiriladi; natijada bu jarayonda oqsil sintezini ta'mnlaydigan nukleotidlar shaklida yozilgan informatsiyani DNKdan RNKlar orqali oqsil tartibi shaklida yozilgan informatsiyani DNKdan RNKlar orqali oqsil molekulasi dagi aminokislotalar tartibiga ko'chiriladi. *Bu jarayonda nukleotidlar tartibi nuklein kislotalar tilidagi aminokislotalar tartibi oqsil tiliga tarjima qilinadi. Shuning uchun oqsil sintezi translytsiya - tarjima qilish deb yuritiladi. Ona hujayra qiz hujayraga tayyor oqsil molekulalarni uzatmaydi, balki ularni yaratish uchun ko'rsatmalar, dasturlar beradi.*

Bu information DNK molekulasida, qisman RNKda ham nukleotidlarning birin ketin kelishi shaklida yozilgan. Unga biologik kodlash yoki **genetic kodlash** deyildi.

Oqsil sintezida DNK asosiy rol o'yndi. DNK 4 xil nukleotidlardan taskhil topgan bo'lib, har bir aminokislotani 3 ta (triplet) nukleotid kodlaydi. Bu 3 ta nukleotidlar tripleti aminokislota kodi, kodon, genetik kod deyiladi.

Jami 64 ta kod bo'lib, shundan 61 tasi 20 ta aminokislotani kodlaydi. 3 ta triplet terminator (stop kodon) kodlari bo'lib, aminokislotani kodlamaydi iRNK ohrida terminator kodlari keladi va oqsil sintezini tugaganligini bildiradi. Bir aminokislotani 1 tadan to 6 tagacha kod kodlashi mumkin.

DNK hujayra yadrodisida mavjud bo'lib, oqsil sintezi esa sitoplazmadagi ribosomalarda amalga oshadi. Oqsil strukturasi dagi axborot DNKda saqlanadi. Turli oqsillar birlamchi strukturasi haqidagi axborotlar yozuvni DNK uzun ipida birin-ketin keladi. DNKnинг bir molekula oqsil sintezini belgilab beradigan har bir qismi gen deb ataladi.

### Oqsil sintezlanishi uchun jarayonlar ketma ketligi:

1. Xromosomadagi ikki zanjiri DNKnинг bitta geni joylashgan masofasi RNK - polimeraza fermenti yordamida orasi ochilib, RNK sintezlanadi. Bunda DNKnинг fagat bitta zanjiri ma'noga ega bo'lib, ikkinchi DNK zanjiri matritsa vazifasini bajaradi, aynan o'sha matritsali zanjiridan i-RNK sintezlanadi. Agar DNKnинг matritsali zanjirida A-G-T-C-A-G-T-A-C-G-T ketma-ketlikdagi nukleotidlar bo'ladiqan bo'lsa, i-RNK zanjirida ----- U-C-A-G-U-C-A-U-G-C-A nukleotidlar mos kelib sintezlanadi.

Bu jarayonni ya'ni DNK zanjiridan RNK ning sintezlanishini *transkriptiya* deyiladi.

2. i-RNK sintezlanib bo'lgach, biroz ajralgan qo'sh zanjirli DNK yana o'z holiga qaytadi.

3. Sintezlangan i-RNK yadro teshiklar orqali sitoplaznaga chiqadi va ribosomadagi oqsil sintezini boshlaysi.

4. Bu vaqtida lizosomlar tomonidan parchalangan sitoplazmadagi erkin aminokislotalarni iRNK o'ziga biriktirib olgan bo'ladi:

tRNKnii akseptor shohobcha yoki aminoatsil uchi deb nomlanadigan uchi mavjud. Aynan tRNK aminoatsil uchi bilan mos aminokislotani biriktradi.

iRNKnинг antikodon qismi ham mavjud va antikodon qismi i-RNK kodoniga mos keladi. Antikodon 3 ta nukleotiddan iborat bo'lib, i-RNK kodoniga birikadi.

5. tRNK o'ziga biriktirgan aminokislotani olib ribosomaga keladi va ribosomaning A-aminoatsil qismiga kirib (ribosomaning katta subbirligida joylashgan) i-RNKnинг tegishli kodoni

(iRNK birikadigan nukleotidlar uchligi)ga o'zining antikodon (tRNK antikodon nukleotid uchligi) qismi bilan i-RNK kodoniga birikadi komplementar birikadi.

6. So'ngra aminokislotani tutgan tRNK ribosomaga keladi. Bu vaqt ribosomaning A-aminoatsil qismidagi

iRNK va i-RNK birikmasi ribosomaning siljishi tufayli ribosomaning P-qismiga o'tadi.

7. Ribosomaga kelgan ikkinchi tRNK ribosomaning A-qismiga birikadi va P qismida

1- va 2- aminokislotalar peptid bog'i ni hosil qiladi.

8. iRNKnинг antikodon tripleti ribosomadagi i-RNK tripletiiga komplementar bo'lib chiqsagina, aminokislota iRNKdan ajraladi.

9. Ribosoma shu ondayoq i-RNK bo'ylab bir tripletga oldinga «qadam tashlaysi». Oqsil molekulasi yig'ilib but bo'lib borgan sayin ribosoma iRNK bo'ylab surilib boradi. iRNK esa ribosomadan sitoplazmaga chiqarib tashlanadi

10. Ribosoma oldinga surilib olgandan keyin i RNK ga ikkinchi ribosoma kirib keladi u ham xuddi birinchisini kabi sintezni boshlaysi va birinchini ribosoma ketidan yurib boradi. So'ngra iRNK ga uchinchi, to'rtinchisi va hokoza ribosomalar kiradi. Ulaming hammasi bitta o'sha ishning o'zini bajaradi:

Har biri mazkur iRNK da programmalangan o'sha bir xil oqsilning o'zini sintezlaysi.

11. Ribosoma iRNK bo'ylab qancha surilib borsa, oqsil molekulasingin shuncha kattaroq qismi "yig'ilgan" bo'ladi. Ribosoma iRNK ning qarama qarshi tomoniga yetganida sintez tugagan bo'ladi.

12. Ribosoma hosil bo'lgan oqsil bilan birga iRNK dan tushadi.

13. So'ngra ular bir biridan ajraladi, ribosoma istalgan iRNK ga boradi chunki u har qanday oqsil sinteziga layoqati bo'ladi; oqsil harakteri iRNK matritsasiga bog'liq.

14. Oqsil molekulasi endoplazmatik to'rga boradi va undan surilib, hujayraning mazkur turdag'i oqsil kerak bo'lgan joyiga o'tadi.

15. iRNK ga yangidan yangi ribosomalar kelaveradi va oqsil sintez to'xtovsiz davom etaveradi. iRNK molekulasiiga yetadiqan ribosomalar soni shu molekula uzunligiga bog'liq. Masalan gemoglabin oqsili sintezini programmalaydigan iRNK molekulasiiga bes tagagacha ribosoma joylashadi.

## 2.10.Nuklein kislotalar. Oqsil biosintezi, plastik almashinuv. Genetik kod

Nukleotildar tarkibi: fosfor kislotasi, monosaxarid, azot asosi

DNK nukleotildari: adenin – A; timin – T; guanin – G; sitozin – S

RNK nukleotildari: adenin – A, uratsil – U; guanin – G; sitozin – S.

Ribzo – CSH100S Dezoksinribzo – CSH1004

DNK zanjirida Adenin (A) nukleotidi Timin (T) ga, Guanin (G) esa Sitozin (S) ga komplementardir.

A va T orasida 2 ta vodorod bog'i, G va S orasida 3 ta vodorod bog'i bo'ladi. 1-zanjirming nukleotildar

qatori A-G-S-T bo'lsa, shu zanjiriga parallel turgan 2-zanjirming nuleotidlar qatori T-S-G-A tarzida bo'ladi.

ya'ni: 1-zanjir: A - G - A - A - T - S - G
--

2-zanjir: T - S - T - T - A - G - S
-------------------------------------

Purin asosi: Adenin va Guanin; Pirimidin asosi: Timin va Sitozin

Nukleotildar orasi 0,34 nm ga teng

- **Transkripsiya** – DNKdagi oqsil to'g'risidagi axborotni i-RNKGa ko'chirib o'tilgandek yozilishi.

**Transkripsiya** yadroda kechadi.

### Oqsil biosintezi bosqichlarining farqi

Transkripsiya	Transiyatsiya
- DNK dagi oqsil to'g'risidagi axborotni –RNK ga ko'chirib o'tilgandek yozilishi;	- i-RNK dagi nukleotildar ketma-ketligini amino kislotalar ko'rinishida namoyon bo'lishi;
- Yadroda kechadi:	-Ribosomada kechadi;

**Translyatsiya** – i-RNKGagi nukleotildar ketma-ketligini amino kislotalar ko'rinishida namoyon bo'lishi. Qo'sh zanjirli D NKning bitta geni joylashgan masofasi polimeraza fermenti yordamida orasi ochilib, RNK sintezlanadi. Bu hodisa, ya'ni iRNKnki ko'chirib olish jarayoni transkripsiya deb yuritiladi. iRNK sintezlanishi jarayonida D NKning nusxa ko'chirilayotgan fragmentidan komplementar tarzda nukleotildar qatora ajraladi. Lekin, iRNK zanjirida D NKdagi T o'miga Uratsil (U) nukleotidi hosil bo'ladi. D NK zanjiridan iRNKnning sintezlanishi ya'ni transkripsiya quyidagicha boradi:

Oqsillarning biologik vazifasi asosan amino kislotalarning oqsil molekulasi dagi o'rni ya'ni, ularning ketma-ketligi bilan aniqlanadi. Binobaran, bunday molekulalar biosintesi oldindan belgilangan reja bo'yicha amalga osishish kerak. Bunday reja D NK molekulasiда 4 xil nukleotidlarning yordamida yozilgan bo'lib, u oqsil molekulasingin nusxasi yoki qolipi deb yuritiladi. 20 xil

aminokislotalaning D NK molekulasi dagi 4 xil nukleotildar yordamida ifodalaniши genetik kod deb ataladi. Har bir aminokislota 3 ta nukleotidning birikishidan hosil bo'lgan triplet kod yordamida ifodalaniadi. 20 ta aminokisloti ifodalash uchun 61 ta tripleti koddan foydalaniлади. Demak, bitta aminokislota 2 va undan ortiq kod yordamida ifodalaniadi. Kodilaming umumiy soni 64 (4<sup>3</sup> = 4·4·4) taga teng. Qolgan 3 ta kod oqsil sintezining boshlanishi va tugallanishi bildiradi. Genetik kod barcha tirk organizmlar uchun universal hisoblanadi. Demak, u mikroorganizmlardan odamgacha bir xildir. Genetik kodning muhim xususiyatlardan biri uning o'ziga xosligi bo'lib, bitta triplet bitta aminokislotaga mos keladi, oqsil biosintezi o'ta murakkab jarayon bo'lib, bunda xilma-xil ferment va RNKlar ishtirok etadi. Bu jarayon hujayraning massus sintez qiluvchi organoidi — ribosomalarda kechadi. Dastlab, amino kislotalar ATF energiyasi yordamida faol holga keladi va i-RNKLar yordamida ribosomalarga tashib keltilinadi. Oqsil to'g'risidagi axborot D NK molekulasi dan i-RNKLar yordamida ko'chirib olimadi va ribosoma beriladi. Demak, D NKning zanjirlaridan birida RNK molekulasi sintezlanadi. i-RNK nukleotidlarning ketmakedigi D NK molekulasi dagi nukleotildar ketma-ketligiga mos (komplementar) bo'ladi. Oqsil sintezi transkripsiya va translyatsiya bosqichlarda amalga oshadi. D NKdagi oqsil to'g'risidagi axborotni i-RNKGa ko'chirib o'tilgandek yozilishi transkripsiya deyiladi. Transkripsiya yadroda kechadi. iRNKGagi nukleotildar ketma-ketligini amino kislotalar ko'rinishda namoyon bo'lishiga translyatsiya deyiladi. Translyatsiya jarayoni ribosomada kechadi. Shunday qilib, sitoplazmada ribosoma va iRNKDan iborat oqsil sintez qiluvchi majmuas hosil bo'ladi. Ribosoma i-RNK bo'ylib harakat qiladi va polipeptid zanjirming hosil bo'lishi boshlanadi. Bu harakat davomida ribosoma ketma-ket ravishida amino kislotalar kelib qo'shiladi. Aminokislota bilan tripleti kodining mos kelishimi t-RNK belgilaydi. oqsil molekulasi sintezi tugallangach, polipeptid zanjir ribosomadan ajraladi. Ribosoma va i-RNK molekulasi dan oqsillar biosintezida qayta-qayta foydalish mumkin.

DNK 1-zanjir: A - G - A - A - T - S - G
---

2-zanjir: T - S - T - T - A - G - S
-------------------------------------

RNK zanjiri: A - G - A - A - U - S - G
--

Xromosomalarning ximiyaviy tarkibi oqsil va D NK dan tashkil topgan. Ko'pchilik genetik olimlar avvallari irlsiyatning moddiy negizi oqsil deb hisoblaganlar. Lekin 1928 yilda angliyalik bakteriolog F.Griffits, 1944 yilda AQSH mikrobiolog genetiği O.Everi tomonidan bakteriyalar ustida olib borilgan tajribalar asosida irlsiyatning negizi oqsil emas, nuklein kislotalar ekanligi aniqlandi.

Nuklein kislota molekulasi ko'p marta takrorlanuvchi nukleotidlardan iborat. Nuklein kislotalarning ikki xili: dezoksinribzo nuklein kislotosi (DNK) va


ribonuklein kislota (RNK) mavjud. DNK asosan yadroda, RNK yadroda va sitoplazmada uchrayıdi.

DNK – o'zaro bog'langan bir necha nukleotidlardan tashkil topgan ikkita (qo'sh) polimukleotid zanjiridan iborat ekanligini 1953 yilda D.Uotson va F.Kriklar aniqlagan. Nukleotid organik azotli asos (purin yoki pirimidin), oddiy uglevod – pentoza (dezoksiriboz) va fosfat kislota molekulalarining ximiyaviy yo'l bilan birikishidan hosil bo'lgan mahsulotdir.

DNK polimer molekulasining tuzilishiha to'rt xil nukleotid: sitozin va guanin (purin hosililar), adenin va timin (pirimidin hosililar) ishtiro etadi. Nukleotidlار o'z nominining bosh harfi bilan ifodalab belgilanadi. M: Adenin nukleotidi – A, guanin nukleotidi – G va hokazo.

DNK zanjirning binirning tuzilishi ikkinchisiga bog'liq bo'ladi. Zanjirning birida A - joylashgan bo'lsa, uning ro'parasiga T joylashadi, G - joylashgan bo'lsa uning ro'parasiga C joylashadi. SHunday qilib, zanjirning birida A-G-G-S-T-A-S-S nukleotidlari ketma-ket joylashgan bo'lsa, ularning ro'parasida T-S-S-G-A-T-G-G nukleotidlari joylashadi. Bu to'ldirish principiga asoslanadi. Hujayra bo'linishidan oldin undagi DNK molekulalari ikki hissa ortadi, ya'ni reduplikatsiya yuz beradi. Bunda DNK ning qo'sh spiral zanjiri bir uchidan ajrala boshlaydi va hujayra muhitida mavjud bo'lgan erkin nukleotidlardan DNK zanjiri tuziladi. Qo'sh spiral zanjirida pirimidin va purin asoslari ma'lum masofada joylashishini Chargaff aniqlagan.

1969 yilda Kaliforniya universitetida elektron mikroskopda DNK qo'sh spirali bakteriya hujayralarda suraga olindi. DNK qo'sh zanjirin birining uzunligi ikkinchisi bilan teng. Uotson - Krik taklif etgan sxematik tuzilish (model) umumiy qabul qilingan.



DNK qo'sh zanjiri.

**Replikatsiya** – DNK qo'sh zanjirining o'z-o'zidan ko'payishi demakdir.

**Transkripsiya** – DNK molekulasidagi informatsiyani RNK molekulasiga ko'chirishi demakdir.


**Translyatsiya** – oqsil sintezida aminokislotalarning ketma-ketigini aniqlanishi tushuniadi.

DNK sintezi fermentativ protsessdir. Bu DNK ning maxsus fermenti polimerazaning faoliyat natijasida yuzaga chiqadi. DNK faqat nukleotidlarning joylashishi tartibini belgilab beradi, reduplikatsiya protsessini esa oqsil fermenti boshqaradi.

RNK strukturasida qo'sh spiral yo'q, u DNK zanjiridan biriga o'xshaydi. DNK zanjirlari kabi RNK ham polymerdir. RNK nukleotidlari A,G,S va U (Uratsil) dan iborat.


RNK ning molekulyar og'irligi DNK ning molekulyar og'irligidan kichik, RNK molekulalari uzunligi DNK zanjiridan kalta bo'ladi.

RNK uch xil bo'ladi:



t-RNK – transport

1) i-RNA – informatsion yoki vositachi



i-RNA – ribosomal RNA

i-RNA irlsiy axborotni yadrodan (DNKdan) sitoplazmaga yetkazadi.

t-RNK sitoplazmadagi nukleotidlarni (aminokislotalarni) oqsil sintezlanadigan joyga - ribosomaga yetkazib beradi. r-RNК oqsil sintezida ishtirok etadi.

### Oqsil biosintizi xulosalari

• Oqsil sintezi jarayonida t-RNK adaptorlarik vazifasini bajaradi. Yani t-RNK sitoplazmada duch kelgan aminokislottani o'ziga binkritib olavermaydi.

• i-RNA boshida start kodoni (hamma organizmlarda start kodoni metioninni kodlaysi) oxirida esa stop kodoni mavjud (stop kodoni aminokislota kodlamaydi). Sintez tugaganini i-RNA oxirida kelgan stop kodon belgilaydi.

• Odatta bir vaqtida bir necha ribosomalar orqama-ketin i-RNКga kirib, bir vaqtida bir necha, bir xil oqsil zanjirini sintezlaydi. Demak i-RNA zanjiri asosida oqsil sintezlanish jarayoni translyatsiya jarayoni deylidi.

• 200–300 aminokislotta qoldig'idan tuzilgan o'rtaча oqsil molekulasining sintezi juda tez,

1–2 minut ichida beixon bajariladi.

• Transkripsiya va translyatsiya jarayonida bir oqsilga DNKnning kichik bir qismi to'g'ri keladi, bu qism gen deb atalib, u bir oqsilni sintezlash uchun yetarli

axborot saqlaydi. O'rtacha oqsil molekulasini tuzishi uchun kamida 900 nukleotid zarur bo'lib, u bitta gen hisoblanadi. Gen strukturasida anchagini qo'shimcha nukleotidlari ham bor, ular o'qish jarayonida gen ishining boshlanishini, tugatishini idora qiladilar, ular ham nukleotidlari qatoridan iborat.

• Mana shu genni boshqaruvchi qismalar tufayli genning uzunligi faqat aminokislotalarni kodlash uchun zarur nukleotidlari sonidan ortiqroq, yuqorida aytgan 900 nukleotid emas, balki 1000 atrofida bo'ladi. Oqsil genning oxirgi mahsuloti bo'lganidan gen o'qilishini regulatsiyasi oqsil sintezini nazorat qilish maxnimizining kalitidir.

• Hujayrada kechadigan jarayonlar juda aniq, boshqarlishi tufayli hujayrada molekulalar faqat kerakli vaqtida va miqdorda sintezlanadi. Bu jarayondagi har qanday xato oqsil sintezining buzilishiga sabab bo'ladi. Oqibatda irlsy kasalliklar kelib chiqadi: sintezlanayotgan oqsilning polipeptid zanjiriga bitta aminokislotasi o'miga boshqasi kirib qolsa, yaroqsiz boshqa oqsil molekulasini paydo bo'ladi, u kerakli oqsil vazifasini hajara olmaydi.

• Bu xato og'ir oqibatga olib kelishi natijasida qandaydir ferment, gormon, transport qiluvchi oqsil yetishmasligi tug'iladi. Masalan, normal gemoglobin (HbA) beta - subbirliklarda 6- o'rindagi aminokislotasi glutamat kislotasi o'miga valin joylashishi tufayli kelib chiqadigan HbS gemoglobin sintez qilinishi o'roqsimon kamyonlik deb ataladigan kasallikha olib keladi; bu kasallik bermomi nobud bo'lishiga sabab bo'ladi. Oqsil sintezidagi bunday fojiali o'zgansh DNKdagi, ya'n gendagi defektga bog'liq. Bu irlsy bo'lishi yoki radioaktiv nurlar ta'sirida yuzaga chiqishi mumkin.

#### Oqsil biosintesi

DNKnning 1-zanjiri	A	T	G	T	T	T	A	A	T	C	C	G	T	T	A	C	T	C
DNKnning 2-zanjiri	T	A	C	A	A	A	T	T	A	G	G	C	A	A	T	G	A	G
i-RNK	A	U	G	U	U	U	A	A	U	C	C	G	U	U	A	C	U	C
antikodon	U	A	C	A	A	U	U	A	G	G	C	A	A	U	G	A	G	
aminokislometionin		fenilanamin		asparagin		prolin		leysin		leysin								

#### 2.11.Oqsillar (aminokislotalar)

Oqsil nomi tuxum oqi so'zidan kelib chiqqan. Ilmiy adabiyotlarda protein (yunoncha protein «birinchisi, eng muhim» ma'nosini beradi) termini bilan atash qabul qilingan. Oqsillar hujayradagi boshqa molekulalardan yuqori molekulalar massali bo'lishi bilan farqlanadi. Hujayradagi organik moddalar ichida oqsillar miqdor va ahamiyati jihatidan birinchisi o'rinni egallaydi. Oqsillar yuqori molekulalari kolloid birikma bo'lib, aminokislotalardan tashkil topgan. Ular

gidroliz qilinsa, aminokislotalarga parchalanadi. Oqsillarning elementar tarkibi karbon, vodorod, kislorod, azot hamda oltingurgurtdan iborat. Ularning tarkibida ba'zan fosfor ham uchraydi oqsillar tarkibidagi azot miqdori doimiy bo'lib, o'rta hisobda 16 % ni tashkil etadi. Oqsil tarkibi: C, H, O, N (16 %), S, P

**Polipeptid zanjir** – peptid bog' va aminokislotalardan iborat tuzilma. Aminokislotalar peptid bog'lar yordamida o'zaro birkadi. A – aminokislotasi; P – peptid bog'. Aminokislotalar orasidagi peptid bog'lar soni aminokislotalardan 1 taga kam bo'ladi: A \* P \* A

#### Aminokislotasi

1 ta aminokislotasi - 120 dalton (D)

3 ta nukleotid - 1 ta aminokislotasi

Ikkita nukleotid orası - 0.34 nm

1 mol ATF - 40 kj

1 mol glukoza - 180 gramm

1 gramm yog'i - 9.3 kkal - 38.9 kj

1 gramm oqsil - 4.1 kkal - 17.6 kj

1 gramm uglevod - 4.1 kkal - 17.6 kj

Uglevod va lipidlarda azot uchramaydi.


O'rtacha oqsilning molekula massasi 30–40 ming D (dalton) deb qabul qilsak, u uglevod va lipidning molekulyarmassalaridan ancha yuqoridir. Glyukoza 180, neytral yog'i 420, moy kislotani 88 ga teng. Bunday farqning asosi shundaki, oqsillar yuksak polimer birikmalardir. Ular bir xil sodda molekula monomerini o'nlab, yuzlab, minglab bo'lib, tashkil etadi.

Hujayrada oqsil molekulalaridan tashqari, yana bir qator polimerlar: nuklein kislotalar, polisaxaridlar mayjud. Polimerlari tashkil etadigan monomerlar soni o'nlab, yuzlab, minglab bo'lishi, ular butun molekula davomida bir xil (gomopolimer), masalan, kraxmal, kletchatka, glikogendagi yoki bir necha xil (geteropolimer) bo'lishi mumkin.

Oqsil molekulaligasi 20 xil aminokislotalar kiradi. U geteropolimerdir. Lekin geteropolimerlar tarkibiga kiradigan monomerlarning xillari ham chegaralangan. Nuklein kislotalar strukturasiда ular 4 xil, oqsillarda esa 20 xildir. Lekin, ular polimer tarkibida yuzlab, minglab, o'n minglab takrorlanadi. Umuman polimerning tuzilishini sxematik ravishda quyidagicha ko'sratish mumkin: A-A-A-A-A ... A – monomer. Oqsil molekulalida bu monomer aminokislotalari.

O'simliklarda oqsillar ribosomalarda aminokislotalardan sintezlanadi. Hayvonlar organizmiga oqsillar ovqat bilan kiradi va aminokislotalarga parchalanadi, parchalanagan aminokislotalardan *genetik kod* asosida ixtisoslashgan oqsillar sintezlanadi. Oqsillar biopolimerlar bo'lib, bir qancha

monomerlar (aminokislotalar) dan iborat. Aminokislotalarning umumiy formulasi quyidagicha:



COOH – karboksil gruppasi

R – radikal (20 xil variantni hosil qiladi).

Barcha aminokislotalar orasidagi farq radikalining o'zgarishiga bog'liq:

Radikal tarkibida yana bitta carboksil gruppasi – COOH bo'lsa ----- dikarbon kislota

Aspartat kislota, qo'shimcha – NH<sub>2</sub> bo'lsa---- diaminokislota (masalan lizin hisol bo'ladi).

Ular monoamino, monokarbon kislota, diaminokislota, dikarbon kislotalar deb ataladi.

Radikal tarkibida gidroksil OH gruppasi, sulfidgrirl – SH gruppalar tutadigan aminokislotalar ham bor. Oltinugurq saqlovchi sistein oqsil molekulalarini tarkibida sisteining ikkinchi molekulasi bilan disulfid bog' – S – S – hosil qilib birirkun bo'ladi.

Sistin deb ataladigan bu struktura bitta aminokislota hisoblanib oqsil molekulalarining ayrim qismilari yoki boshqa polipeptid zanjiri orasida ko'pnik tashkil qiladi.

Tarkibidagi radikal aromatik, heterotsiklik halqa tuzilishi bo'lgan siklik aminokislotalar ham mavjud; aromatik aminokislotalar --- fenilalanin, tirozin heterotsiklik aminokislotalar--- gistikdin, triptofan

Aminokislotalar bir-birlari bilan peptid bog'i yordamida birikib oqsillarni hosil qiladi.

Aminokislotalagi aminogruppa va karboksil gruppalar birikishi natijasida bir molekula suv chiqib ketadi.

Aminogruppa va karboksil gruppasi o'rtasida hosil bo'lgan bog' peptide bog'i deyiladi.

#### *Oqsillar Fizikaviy xossalari:*

Rangsiz, kristall, suvda eruvchan, organic moddalarda erimaydi.

Aminokislotalar bir-biri bilan peptid bog'i orgali bog'lanadi:

– C – N – Peptid bog'i C – N o'rtasida sodir bo'ladi



Tabiatda uchraydigan aminokislotalar soni 300 ga yaqin. Ulardan faqat 20 xilgina hamma oqsillar tarkibiga kiradi. Bir qanchalari faqat alohida organizmlar, ayrim oqsillar va peptidlар tarkibida uchraydi.

#### *Oqsilning xossalari*

Oqsil molekulasingiz fizik-kimyoiy xossalari uning yuqori molekulalar geteropolimer bo'lishidan kelib chiqadi. Oqsil molekulasi faqat aminokislotalardan tuzilgan bo'lsa ham bu monomerlar bir xil emas, oqsil molekulasi tarkibida bir-birdan farq qiladigan 20 xil aminokislota turli miqdorda va nisbatda uchraydi. Oqsil tarkibida aminokislotalar bir necha marta takrorlanib keladi. Shu sababli tabiatda oqsillarning xillari cheksiz. Ichak tayoqchasi bakteriyasining 3000 ga yaqin oqsil molekulalari mavjud bo'lsa, odam organizmida oqsillarning xillari 5 000 ga yetadi.

Har bir tur oqsillari boshqa tur oqsillaridan ozmi-ko'pmi farq qiladi. Turlar bir-birdan qancha uzoq bo'lsa, ularning oqsillari orasidagi farq ham shuncha uzoq bo'ladi. Oqsil molekulalari noqquay sharoitda, kislota, ishqor, tuzlar, yorug'lik, mexanik ta'sirlardan buziladi. Ko'p hujayralar tarkibida juda kam miqdorda uchraydigan oqsillarni ajratib olish, tozalash, tekshirish, takomillashtagan laboratoriya metodlari, asbob va apparatlari talab qiladi. Bunda oqsillarni xromatografiya, elektroforez, gellar orqali filtrlash, ultratsentrifugada differential cho'ktirish, nishonlangan atomlardan, avtomatik analizatorlardan foydalaniладi.

Shuning uchun oqsillarni va hujayradagi funksiyalarini o'rganish oqsillar kimyosining ajoyib texnik darajasidan ham xabardor bo'lishni talab etadi.

Oqsil molekulasingiz, molekula massasining pastki chegarasi 6000 dalton, yuqorigi chegarasi 100000 dalton va undan ham katta. Oqsillar tarkibiga kiradigan aminokislotalarning o'ttacha molekula massasi taxminan 138 ga teng, ular o'zaro peptid bog'i hosil qilganda bir molekula suv H2O ajarbil ketganligi tufayli ularning molekulary massasini 120 deb qabul qilinsa bo'ladi. Molekulary massasi 30000–50000 ga teng o'rtaча oqsil taxminan 300–400 aminokislota qoldig'idan tuzilgan (300x120=36000), ko'pincha bitta polipeptid zanjiridan tashkil topgan bo'ladi.

Oqsil molekulalarining o'lchami ham juda katta. Juda kichik o'lchamlari hujayra komponentlari, molekulalar, atomlar orasida- gi bog'lar, masofalar, nur to'liqni uzunligini nanometrler –10–9 m, 1 m ning milliarddan bir qismi; 1 mm 10 m<sup>3</sup> ning milliondan bir qismi va 1 mikm 10<sup>-6</sup> m ning mingdan bir qismi bilan ko'rsatish qabul qilingan. Bu o'lchamda oqsillarni boshqa mayda obyektlar va molekulalar bilan taqqoslansa quyidagi qator kelib chiqadi: atom- ning kattaligi 0,1 nm, aminokislota 1 nm, oqsil molekulasi 5–10 nm, viruslar 10–100 nm, bakteriyalar hujayralar 0,3–0,9 mikm, eritrotsitlar 10 mikm.

#### *2.12.Oqsillar molekulasingiz tuzilish darajalari.*

Har bir aminokislotalarning uzunligi 3A0 (Angstrem) ekanligini nazarda tutsak, bir qancha aminokislotalardan iborat oqsilning uzunligini tasavvur qilish

mumkin Bunday uzunlikka ega oqsil molekulasi hujayraga qanday sig'ishi mumkin?, degan savol tug'ilishi mumkin.

Oqsil makromolekulasinining strukturasida tuzilishining bir necha xillari farqlanadi. Buldarada birinchisi oddiy peptid bog'lar yordamida o'zaro bog'langan aminokislotalaridan zanjiridir. Bu strukturna oqsilning birlamchi strukturasidir. Oqsilning birlamchi strukturalarini odadta o'zgarmasi, irtisy belgilangan bo'ladi. Hujayrada oqsillar birlamchi chiziq shaklida bo'lmay balki, o'ralgan, spiral simon, globulyar, ipsimon fibriliyar shakkilarda bo'ladi. Oqsillarning to'ritta strukturasini mavjud ular birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchi strukturalardir.


Birlamchi struktura – polipeptid zanjirda o'zaro peptid bog'i yordamida bog'langan, chiziqli aminokislotalar ketma-ketligidan iborat (DNK kodlagan, spetsifik, oqsilning funksiyasi va tarkibi birlamchi strukturaga bog'liq.) Insulin gormoni birlamchi strukturada bo'ladi.

Ikkilamchi struktura – polipeptid zanjir spiralsimon bo'lib, zanjirdagi bir aminokislotalarning CO – karboksil gruppasi bilan ikkinchi aminokislotalarning NH – amino gruppasi o'tasida vodorod bog'i hosil bo'ladi. Vodorod bog'i peptid zanjirda bir qancha bo'ladi va ular qo'shni bo'lmasdan, lekin bir-biriga yaqin bo'lgan aminokislotalar o'tasida sodir bo'ladi. Globin, sochdag'i keratin, kollagen oqsillari ikkilamchi strukturada ega.

